

Oliy ta'lim muassasida to'lov shartnomasi asosida ta'lim olish uchun ta'lim kreditlarini berish to'g'risida

-sonli Kredit shartnomasi

Toshkent sh.
2021 y.

“ ” _____

“Orient Finans” XATB (bundan buyon “Bank” deb yuritiladi) nomidan 20__ y. _____-sonli ishonchnomaga asosan faoliyat yurituvchi _____ (Amaliyot boshqarmasi / filiali) Boshqaruvchisi / Boshlig'i _____ F.I.Sh. _____, bir tomondan, va ikkinchi tomondan _____ tomonidan 20__ y. “ ” _____ da

berilgan

O'zbekiston Respublikasining _____-seriyali _____-raqamli pasport egasi _____ (bundan buyon “Qarz oluvchi” deb yuritiladi) mazkur shartnomani (bundan buyon “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank quyidagi shartlarda va miqdorda Qarz oluvchiga pul mablag'larini (ta'lim krediti asosida) berishga majburiyatini oladi:

Kredit summasi - _____ (_____) so'm.

Kreditdan foydalanish muddati: _____ oy.

Kreditning foiz stavkasi: yillik 14% (o'zgaruvchan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi asosida) – Markaziy bank bazaviy stavkasi pasaygan taqdirda foiz stavkasi tegishli pasaytiriladi, agar oshirilgan taqdirda – o'zgarmasdan qoladi;

Foizlarni to'lash muddati – har oyning 10-chi sanasi.

Kredit maqsadi: talabning _____ o'qishi uchun to'lov.

Qarz oluvchi olingan kredit summasini qaytarishga va uning foizlarini to'lash majburiyatini oladi.

2. KREDITNI BERISH, SO'NDIRISH, FOIZ VA BOSHQA TO'LOVLARNI TO'LASH TARTIBI

2.1. Kredit berish 20__ y. _____-sonli Shartnoma asosida pul ko'chirish orqali Kontrakt summasining 50%dan kam bo'lmagan miqdoridagi qismini Shartnoma imzolanishi bilan, qolgan qismini 20__ yilning 1 mart sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda oliy oquv yurtining bank hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

2.2. Kredit berish Bank tomonidan kreditni qaytarish va Mazkur SHartnoma bo'yicha boshqa shartlarni bajarish ta'minotini belgilab beradigan hujjatlar to'liq qabul qilinganda va tegishli tartibda rasmiylashtirilgandan keyin amalga oshiriladi.

2.3. Kredit bo'yicha asosiy qarz summasini so'ndirish mazkur SHartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 1-sonli Ilovada keltirilgan jadval bo'yicha amalga oshiriladi.

Kredit bo'yicha asosiy qarz summasini so'ndirish naqd yoki naqdsiz ko'rinishdagi pul mablag'larini kiritish orqali amalga oshiriladi. Asosiy qarzni Qarzdor xohish-istagiga ko'ra muddatidan oldin so'ndirishi mumkin.

2.4. Agar kredit so'ndirilish sanasi bank ish kuniga to'g'ri kelmasa uning so'ndirilishi keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi.

2.5. Agar kredit mablag'lari to'liq hajmda ishlatilmasa (qabul qilinmasa), mazkur SHartnomaning 1-sonli Ilovasida keltirilgan So'ndirish jadvaliga binoan birinchi va keyingi to'lovlar kreditning tanlanmagan summasi farqiga keyingi to'lovlarga ko'chiriladi.

2.6. Asosiy qarzning qoldig'i foizlari har ish kuni oxirida 365 kuni va har oyning aniq kunlarini inobatga olgan xolda hisoblanadi. Kredit uchun foizlar kreditning dastlabki mablag'i berilishi bilan oq xisoblanadi.

Bank _____

Qarz oluvchi _____

2.7. Har oyning 10 sanasida Qarz oluvchi Bankka Shartnoma shartlari asosida kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni to'lab boradi

2.8. Asosiy qarz, foizlar, kredit bo'yicha qomissiyalar va boshqa to'lovlar Qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasi asosida, va/yoki Bank tomonidan mustaqil Qarz oluvchining barcha hisob raqamlaridan memorial order asosida yechib olish orqali amalga oshiriladi.

2.9. Qarz oluvchining ixtiyoriga asosan Kredit shartnomasining quyidagi shartlaridan biri qayta ko'rib chiqilgan taqdirda Qarz oluvchi Bankka Bank tariflarida belgilangan bir martalik kommissiya to'lovini amalga oshiradi yoki Bank mustaqil tarzda mazkur kommissiyani yechib oladi: (a) foiz stavkasining o'zgarishi (Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi o'zgarishi bundan mustasno); (b) asosiy qarzni va foizlarning so'ndirilish grafigi; (v) garovga quyilgan mol-mulkning o'zgartirilishi; (g) qarzni ko'chirilishi hollarida.

2.10. Mazkur Kelishuvning ko'rsatilgan shartlarini ko'rib chiqilishi, shuningdek tegishli hujjatlarning rasmiylashtirilishi bir martalik kommissiya to'langanidan so'ng amalga oshiriladi.

2.11. Qarz oluvchi / Birgalikda qarz oluvchi kreditni so'ndirish, foizlarni va kommissiyani to'lash borasidagi vazifalarini bajarmagan yoki tegishli tarzda amal qilmagan taqdirda Bank Qarz oluvchi / Birgalikda qarz oluvchining roziligisiz va ixtiyorisiz (aktseptsiz tartibda) talab etilgan pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 783 moddasiga asosan yechib olish huquqiga ega. Shu tarzda Qarz oluvchi / Birgalikda qarz oluvchi Bankka mazkur Shartnoma asosida o'zining ixtiyori va roziligisiz aktseptsiz tartibda barcha xisob raqamlaridan tegishli mablag'larni yechib olish xuquqini beradi.

2.12. Mazkur Shartnomaning barcha to'lovlari quyidagi so'ndirish ketma ketligi uchun yo'naltiriladi:

(a) Qarz oluvchining aybi bilan xosil bo'lgan Bank chiqimlarini va muddati o'tgan bank kommissiyasi to'lovlari so'ndirilishi;

(b) asosiy qarz bo'yicha hisoblandan muddati o'tgan foiz to'lovlari;

(v) muddati o'tgan asosiy qarz to'lovlari;

(g) bank kommissiyasi bo'yicha muddatli to'lovlari;

(d) asosiy qarz bo'yicha hisoblangan muddatli foiz to'lovlari;

(j) muddatli asosiy qarz to'lovlari.

3. KREDIT QAYTARILISHINING TA'MINOTI

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi majburiyatlarini amalga oshirishni ta'minlashda quyidagilar taqdim qilinadi:

- Jismoniy shaxs _____ kreditning 125% teng bo'lgan mablag' miqdorida kafilligi.

Garov va kafillik bo'yicha aniq shartlar ta'minot shartnomasida belgilanadi.

3.2. Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarishning bir nechta ta'minotining mavjudligi bir biriga qarama qarshilik tug'dirmaydi, majburiyatlarni bajarilishining har bir usuli mustaqil ravishda amalga oshadi va bir biriga bog'liq emas. Majburiyatlarni bajarilishining ta'minotiga undiruvchi qaratish talab etilgan hollarda tanlov huquqi Bankda qoladi, va u o'z ixtiyori bilan majburiyatlar bajarilishining ta'minot usullaridan biri yoki barchasiga undiruvni qaratilishini talab qilishi mumkin.

Qarz oluvchi kredit qaytarilishining ta'minoti bo'yicha barcha hujjatlarning lozim darajada rasmiylashtirilishi bilan bog'liq xarajatlarni o'z bo'yniga oladi.

3.3. Bank talabiga ko'ra Qarz oluvchi quyidagi hollarda Bankni qanoatlantiradigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etishga majbur:

(a) Qarz oluvchining moliyaviy axvolning yomonlashganda,

(b) qadr, qiymati va likvidiligi yoqolganda; bozor narxining sezilarli darajada pasayganda; Shartnoma bo'yicha taqdim etilayotgan kredit ta'minoti qisman yoki to'liq yuqotilganda, narxi tushganda;

(b) Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmasligi xavfini orttiruvchi boshqa omillarning yuzaga kelishi.

Agar qarz oluvchi tomonidan kredit ta'minoti (qo'shimcha ta'minot) sifatida (kredit shartnomasini imzolash paytida yoki uning amal qilish muddati mobaynida) ko'char va/yoki ko'chmas mulk taqdim etilsa, qarz oluvchi kredit ta'minotini kamida 125 (bir yuz yigirma besh) foizdan kam saqlamaslik majburiyatini oladi.

3.4. Agar Qarz oluvchi mazkur shartnomada belgilangan sanaga qadar asosiy qarz, foizlar va/yoki vositachilik haqi to'lovini amalga oshirishiga layoqatli bo'lmaydigan biron vaziyat yuzaga kelsa Bank amaldagi qonunchilikga, Mazkur shartnoma va ta'minot shartnomasiga asosan undiruvchi garov ta'minotiga to'liq yoki qisman qaratishning chaqirib olinmaydigan va shartsiz huquqini qo'lga kiritadi.

4. BANKNING HUQUQLARI

Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.1. Qarz oluvchidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish va ta'lim kreditini berish uchun zaruriy hujjatlarni talab qilish;

4.2. Quyidagi hollarda Qarz oluvchiga kredit berishni to'liq yoki qisman rad etish:

– 2 (ikki) oy muddat ichida kredit berish uchun (dastlabki shartlarni bajarmaslik) Shartnomada ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim qilmaganda;

– Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini amalga oshira olmasligini tan olganda, shuningdek muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

– Shartnoma imzolangandan keyin kreditni qaytarishga ta'sir qiladigan ishonchsiz axborotlar aniqlanganda

4.3. Mazkur shartnoma bo'yicha memorial order bilan aktseptsiz tartibda to'lanishi lozim bo'lgan summalarni Qarz oluvchining Bankdagi barcha hisobraqamlaridan, plastik kartalaridan va boshqa bankdagi hisob raqamlaridan, hamda istalgan valyuta hisob raqamlaridan Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilgan va Bankning amaldagi ta'riflari bo'yicha konvertatsiya uchun vositachilik haqini ushlab qolgan holda yechib olish;

4.4. Qarz oluvchining moliyaviy holati, kredit ta'minoti uchun berilgan garov predmeti (garov taqdim etilgan bo'lsa) holati masalalari bo'yicha nazorat qilish.

4.5. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganda, bunday vaziyat va holatlarning jiddiyigidan kelib chiqqan holda, Bank o'z xohishiga ko'ra quyidagi choralardan birini qo'llaydi:

a) Qarz oluvchiga belgilangan muddatda majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelganligi to'g'risida va bunday vaziyatlarni olidini olish va bartaraf etish uchun yozma talabnoma (shikoyat) yuborish;

b) Mazkur shartnomada nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarilishi uchun qo'shimcha ta'minotini talab qilish;

v) Qarz oluvchidan Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan tartibda jami kreditni yoki uning qismini qaytarishni talab qilish;

g) Qonunchilikda, mazkur shartnoma va ta'minot shartnomalarida nazarda tutilgan tartibda undiruvni kredit ta'minotiga va/yoki Vazirlar Mahkamasining 04.12.2002 №422 sonli Qaroriga muvofiq Qarz oluvchining boshqa likvid mulkiga qaratish;

d) Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibida undiruvni Qarz oluvchining ish haqiga qaratish;

e) Amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibida Qarz oluvchini to'lovga layoqatli emasligi haqida ma'lumotni nashrlarda bosib chiqarish bilan e'lon qilish.

j) Amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda Bankning huquq va manfaatlarini himoya qilish, hamda kredit Qarz oluvchiligini qaytarish uchun barcha zaruriy va etarli choralarni ko'rish. Bu borada Bank tomonidan qilingan barcha xarajatlar Qarz oluvchi hisobidan qoplanadi.

z) O'zbekiston Respublikasining Qonunchiligi va Mazkur Shartnomaga asosan boshqa istalgan huquqlardan foydalanish.

5. BANKNING MAJBURIYATLARI

Bank _____

Qarz oluvchi _____

Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

5.1. Mazkur Shartnomaga muvofiq Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag'larini olishning dastlabki shartlari bajarilgan taqdirda Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlarda, muddatda va miqdorda kredit berish.;

5.2. Olingan kredit xisob-kitobini yuritish uchun Qarz oluvchi nomiga alohida xisob raqam ochish;

5.3. Qarz oluvchining yozma talabiga muvofiq kreditga taaluqli ma'lumotlarni taqdim qilish, Qarz oluvchining huquq va majburiyatlari to'g'risidagi ishonchli va to'liq ma'lumotlarni, jumladan ta'lim kreditini berish bilan bog'liq barcha harajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar haqida xabar berish;

5.4. Bank tomonidan kreditni muddatidan oldin undirilishining isbot va sabablari haqida Qarz oluvchiga ma'lum qilish;

5.5. Kredit va hisob kitob masalalari bo'yicha Bankning normativ- huquqiy hujjatlarida va ichki normativ hujjatlarida o'zgartirishlar to'g'risida Qarz oluvchini xabardor qilish;

5.6. Qarz oluvchilikni muddatdan oldin undirishga qadar 5 (besh) bank ish kunidan kech bo'lmagan muddatda Qarz oluvchini kredit va foizlarni muddatdan oldin so'ndirish to'g'risida xabar berish lozim;

5.7. Qarz oluvchining so'roviga binoan kredit qarzning qoldig'i haqida ma'lumot taqdim etish. Mazkur ma'lumot elektron shaklda Qarz oluvchining shaxsiy kabineti orqali (Bankning mobil ilovasida) berish mumkin.

6. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI

Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.1. Ta'lim kreditining amaldagi shartlari bilan tanishish;

6.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha olingan kredit summasini muddatidan oldin qaytarish va foizlarni to'lash;

6.3. O'zining huquq va majburiyatlari to'g'risida aniq va to'liq ma'lumotlarni, jumladan ta'lim kreditini taqdim qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'g'risida ma'lumotlar olish;

6.4. Bankdan Mazkur shartnomaning shartlarini bajarishni talab qilish;

6.5. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki noto'g'ri bajarish natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplashni Bankdan talab qilish;

6.6. Kreditning asosiy qarz summasi qoldig'i bo'yicha hisob raqamdan ko'chirma, kredit bo'yicha to'langan foizlar, vositachilik haqi to'g'risida aniq va to'liq ma'lumotlarni taqdim etilishi talab etish.

6.7. Bankdan boshqa kreditlar olish maqsadida murojaat qilish.

7. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI

Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

7.1. Kreditni maqsadli ishlatishni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilish bilan birga Mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda kreditdan foydalanish;

7.2. Kreditdan foydalanish jarayonida kredit berishning asosiy tamoyillariga rioya qilish: muddatlilik, qaytarilishi, maqsadli foydalanish, pullik, kreditni qaytarish ishonchliligi va ta'minoti.

7.3. Kreditni so'ndirish jadvaliga muvofiq (mazkur Shartnomaning 1-sonli Ilovasi) kreditni qaytarishni ta'minlash;

7.4. So'ndirish jadvalida (mazkur Shartnomaning 1-sonli Ilovasi) ko'rsatilgan sanadan kech bo'lmagan muddatlarda, ushbu shartnomaning Shartlariga ko'ra kredit summasini, kreditdan foydalanganlik uchun foiz to'lovlarini va to'lanishi kerak bo'lgan boshqa to'lovlarni so'ndirish uchun talab qilingunga qadar depozit hisobraqamida zaruriy pul summasi mavjudligini ta'minlash.

7.5. Mazkur Shartnoma bo'yicha kreditni o'z vaqtida va to'liq so'ndirish va foizlarni to'lashga, hamda Qarz oluvchining boshqa majburiyatlarini lozim darajada bajarishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha shart sharoitlar bo'yicha Bankka o'z vaqtida xabar berish.

7.6. Mazkur Shartnomaning shartlarini bajarishni qiyinlashtiradigan ishlarni bajarmaslik.

7.7. Mazkur Shartnoma bo'yicha kreditdan foydalanish paytida Bankning birinchi talabi bilan, Qarz oluvchining to'lovga layoqatligini aniqlash va majburiyatlarni to'g'ri bajarish uchun kerakli hujjatlar va ishonchli ma'lumotlarni (ishlayotganligi, ish haqi va boshqalar to'g'risida ma'lumotnoma) Bankka taqdim qilish.

7.8. O'zining yashash joyi va / yoki ish joyini o'zgartirganligi to'g'risida Bankni o'zgarishlarning taxminiy sanasiga qadar 5 (besh) ish kunidan kech bo'lmagan muddatda yozma ravishda xabardor qilish.

7.9. Bankning birinchi talabi bilan Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va lozim darajada bajarmaganlik oqibatida Bank tomonidan yuzaga keladigan barcha xarajatlarni qoplash.

7.10. Oylik daromadlarning kamayish hollari kuzatilganda bunday vaziyatlarning sodir bo'lish paytidan boshlab uch kun ichida, kutiladigan oylik daromadlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim qilib bu haqida Bankka xabar berish kerak.

7.11. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida Bankning yozma roziligisiz uchinchi shaxslar oldida muhim majburiyatlarni olmaslik, ya'ni mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga ta'sir ko'rsatadigan boshqa kreditorlardan kreditlar olmaslik va boshqa shaxslarga qarz bermaslik, uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil bo'lish.

8. SHAHODATLASH VA TASDIQLASH

8.1. Tomonlar Shartnomaning barcha shartlari (tomonlarning huquq va majburiyatlari, kreditning qaytarilish tartibi, foiz va kommissiyalarning miqdori va to'lash tartib va boshqalar) ikki tomonning roziligi asosida kelishilganini va ularning manfaatlari va huquqlarini cheklamaganliini tasdiqlaydilar. Qarz oluvchi o'z hoxishi bilan imzolangan va o'rganib chiqilgan Shartnomaning foiz, kommissiya va boshqa to'lovlarini o'rganib chiqib o'z roziligi, Shartnomaning huquqiy oqibatlarini tushungan holda imzolagan.

Tomonlar shartnomaning matni bilan tanishib chiqqanliklarini, shartnomaning shartlari va Shartnoma yozilgan til tushunarli ekanligini tasdiqlaydilar va Mazkur Shartnomaning tomonlar tomonidan imzolanganligi shikoyatlar mavjud emasligini tasdiqlaydilar.

8.2. Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlab ma'lum qiladi:

- Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun Bankka taqdim qilingan / taqdim qilinadigan hujjatlar va ma'lumotlar taqdim qilingan sanada ular haqiqiy va ishonchli hisoblanadi;
- amaliy va shartli majburiyatlarga ega emas, jumladan uchinchi shaxs foydasiga berilgan kafillik;
- Qarz oluvchi Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish huquqiga ega va bu majburiyatlar haqiqiy hisoblanadi;

8.3. Ushbu bilan Qarz oluvchi / Birgalikda qarz oluvchi quyidagi ishlarni amalga oshirishga Bankka chaqirib olinmaydigan va shartsiz huquq va rozilik beradi:

- Bank tomonidan shartnoma shartlari bilan bog'liq ma'lumotlarni kredit tarixini milliy institutiga va / yoki Banklararo kredit byurosiga taqdim qilish;
- Mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalalari bo'yicha Qarz oluvchining telefon raqamlariga telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, Bankka ma'lum bo'lgan Qarz oluvchining manzillariga (rekvizitlariga), hamda Qarz oluvchining turmush o'rtog'iga, ish beruvchisiga xatlar, elektron va SMS xabarlar yuborish;
- Mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalalari bo'yicha Qarz oluvchi, uning turmush o'rtog'i, hamda uning qarindoshlari, Qarz oluvchining ish beruvchisi bilan muzokaralar (uchrashuvlar) olib borish;
- Qarz oluvchining daromadi to'g'risida ish beruvchidan ma'lumotlarni talab qilish, kredit Qarz oluvchiligini so'ndirish uchun Qarz oluvchiga tegishli bo'lgan pul mablag'larini (oylik ish haqi yordam puli va hokazolar) yo'naltirishni talab qilish bilan ish beruvchiga murojaat qilish.

Bunda, yuqoridagi ishlarning Bank tomonidan amalga oshirilishi bank sirini fosh qilish hisoblanmaydi.

Bank _____

Qarz oluvchi _____

9. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI

9.1. Mazkur bandda keltirilgan hodisalardan istalgan biri majburiyatlarni bajarmaslik holatlari sanaladi:

- a) kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanish;
- b) Qarz oluvchi Mazkur Shartnomada o'rnatilgan sanada, So'ndirish jadvalida (Mazkur Shartnomaning №1 ilovasi), hamda Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa shartlarda kredit, foiz va / yoki to'lovlarni amalga oshira olmasa;
- v) Ishonchsiz hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qilish orqali Bankni atayin chalg'itish;
- r) Qarz oluvchi tomonidan Bankka berilgan kredit bo'yicha istalgan ta'minot o'zining qiymatini to'liq yoki qisman yo'qotsa yoki haqiqiy bo'lmay qolsa;
- d) Qarz oluvchining moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi yoki Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslikka olib keluvchi aniq ma'lumotlarni yashirish;
- ж) Qarz oluvchini Bank oldidagi majburiyatlarini bajarishga ta'sir ko'rsatadigan boshqa hodisalar;
- з) Kreditni qaytarish va foizlarni to'lashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan Mazkur Shartnomaning boshqa shartlarini buzish;
- и) Kreditni qaytarish va foizlarni to'lashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan Mazkur Shartnoma bilan bog'liq (garov, kafillik, sug'urta va boshqalar) boshqa shartnoma shartlarining buzilishi;

10. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

10.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'zining majburiyatlarini bajarmaslik yoki noto'g'ri bajarish hollarida, bir tomon boshqa tomonga keltirilgan zararlarni qoplaydi va qonunchilik aktlari va Mazkur Shartnomada keltirilgan tartibda boshqa mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

10.2. Kreditning asosiy qarzini qaytarish muddati buzilgan hollarda, Qarz oluvchi Bankka kreditdan foydalanishning kechiktirilgan jami muddati uchun o'rnatilgan foizlardan 1,5 barobar yuqori foiz to'laydi.

10.3. Belgilangan muddatda foizlar to'lanmagan taqdirda Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0,1% miqdorida penya to'laydi, bunda penya miqdori kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmaydi.

10.4. Kredit mablag'laridan maqsadsiz ishlatilayotganligi aniqlagan taqdirda Qarz oluvchi Banga maqsadsiz ishlatilgan kredit summasining 50 foiz miqdorida jarima to'laydi.

10.5. Jarimaning to'lovi va zaralarni qoplash qonunchilik yoki Mazkur shartnomasida ko'rsatilgan holatlardan tashqari tegishli tartibda majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

10.6. Shartnomaning Mazkur bo'limida ko'zda tutilgan Bank tomonidan javobgarlik choralari qo'llash Bankning istisno huquqi hisoblanadi va Bankning majburiyatiga kirmaydi.

10.7. Bank o'zining xoxishiga ko'ra Qarz oluvchiga nisbatan Mazkur Shartnoma bo'yicha o'zida mavjud bo'lgan huquqlarning istalgan biridan foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin. Bank tomonidan Mazkur huquqlarning qo'llanilmasligi yoki qisman qo'llanilishi Mazkur huquqlarni rad etishni anglatmaydi va ular istalgan vaqtda ulardan foydalanish mumkin.

11. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI

11.1. Mazkur Mazkur Shartnoma bilan bog'liq kelishmovchilik va tushunmovchiliklar muzokaralar orqali hal etilmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining tegishli (shaxar/tuman) sudida ko'rib chiqiladi. Kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha bank hujjat va ko'chirmalari ikkala tomonning asosiy (prima facie) isboti hisoblanadi.

12. ANTIKORRUPTION SHARTLAR

12.1. Shartnoma asosidagi majburiyatlarni amalga oshirishda tomonlar qonunga zid haq-huquqni va boshqa foydani olish maqsadida biron bir shaxsga uning hatti-harakati va qaroriga bevosita va yoki bilvosita ta'sir qilish uchun biron bir pul mablag'larning yoki boshqa qimmatliklarning to'lanishini talab, taklif qilmaydilar va bunga ruxsat berishmaydi.

Bank _____

Qarz oluvchi _____

12.2. Shartnoma asosidagi majburiyatlarni bajarishda tomonlar qonunchilikka muvofiq pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish/xizmatchini pora evaziga og'dirish kabi tasniflanadigan hatti-harakatlarni, shuningdek qo'llaniladigan qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmga qarshi kurashishga doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

12.3. Shartnomaning har bir Tarafi boshqa Tarafning (Bank xodimlarini) rag'batlantirishdan, shu jumladan Bank xodimlariga pul mablag'lari, sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchi tomonning foydasiga Bank xodimlari biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

12.4. Taraflarda har qanday korruptsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubxa tug'ilganda, tegishli taraf yozma ravishda yoki ishonch telefoni orqali og'zaki tarzda boshqa tarafni xabardor qiladi.

13. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOB BERISH

13.1. Ushbu bilan Qarz oluvchi o'z xohish-irodasi va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, Bankka o'z faoliyatini amalga oshirish uchun Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va foydalanishga o'zining muddatsiz roziligini beradi. Shuningdek, Qarz oluvchi Shartnomani bajarish uchun Bank tomonidan shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berilishiga rozilik bildiradi.

Har qanday ma'lumotni (Qarz oluvchining shaxsiy va/yoki aloqa ma'lumotlarini) qayta ishlash avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ularsiz amalga oshiriladi, shu jumladan yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ishlatish, tarqatish (shu jumladan Bank sheriklariga o'tkazish), shaxssizlashtirish, ushbu Shartnoma tuzilishi va bajarilishi munosabati bilan Bankka berilgan shaxsiy ma'lumotlarni blokirovka qilish, yo'q qilish va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa harakatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

13.2. Kredit mahsulotlarini taqdim etish maqsadida, Bank quyidagi (kredit hisoboti/kredit tarixi/ ma'lumotlari va h.k.) Qarz oluvchiga tegishli va/yoki kredit obyektining (agar kerak bo'lsa) ma'lumotlarini kredit byurosiga va boshqa tashkilotlarga (muassalar, banklar) taqdim etishi mumkin.

13.3. Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari maxfiydir. Bank Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini oshkor etilishiga va tarqalishiga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

Bank Qarz oluvchi haqidagi ma'lumotlarni quyidagi hollarda oshkor qilish huquqiga ega: 1) bunday ma'lumotlar hammaga ochiq bo'lsa; 2) qarz oluvchining iltimosiga binoan yoki uning ruxsati bilan oshkor etish; 3) Bank kontragentlariga Bank ushbu Shartnoma shartlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan hajmda taqdim etilishi shart; 4) qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha oshkor etishini talab qiladi; 5) ushbu Shartnomada va Qarz oluvchi bilan Bank o'rtasidagi boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

14. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Mazkur Shartnoma tomonlar tomonidan imzolangan kundan kuchga kirib Bank va Qarz oluvchining barcha o'z bo'yniga olgan majburiyatlarining bajarilishiga qadar amalga oshiriladi. Kredit berish bo'tsicha Bankning majburiyati Qarz oluvchi tomonidan hujjatlar taqdim qilinganidan va Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan dastlabki shartlar bajarilgandan keyin kuchga kiradi.

14.2. Qarz oluvchi iste'mol kreditidan foydalanmagan (qabul qilmagan) hollarda, Bank Qarzlorni yozma ravishda xabardor qilish orqali Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 2 (ikki) oy ichida Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega.

14.3. Qarz oluvchi Mazkur Shartnoma bo'yicha Bankning yozma ruxsatisiz o'zining huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga o'tqazish huquqiga ega emas.

14.4. Agar Mazkur Shartnomaning bir yoki bir necha shartlari qonun yoki sud qarori doirasida haqiqiy emas deb topilsa, bu SHartnomaning boshqa shartlarini harakatdan to'xtatishga sabab bo'la olmaydi.

14.5. Mazkur Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilganda va tomonlar tomonidan imzolanganda haqiqiy hisoblanadi. SHartnoma doirasida tuzilgan barcha Kredit shartnomalari va ularning ilovalari, o'zgartirish va qo'shimchalari uning asosiy qismi deb hisoblanadi.

14.6. Mazkur Shartnomada ko'rsatilmagan vaziyatlar vujudga kelganda ikkala tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikga asoslanib faoliyat olib borishadi.

14.7. Mazkur Shartnoma tomonlarning xohishiga ko'ra 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxasi Qarz oluvchi uchun va bir nusxasi Bank uchun, bir xil yuridik kuchga ega.

15. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

BANK:

QARZ OLUVCHI:

_____ «Orient
Finans» XATBning filiali

ISM-

SHARIFI: _____

Manzil:

Manzil:

h/s

Pasport ma'lumotlari

MFO: _____

STIR: _____

OKED: _____

Telefon: _____; Faks:

_____;

Ssuda hisob raqami:

MFO: _____

STIR: _____

Telefon: _____

Boshqaruvchi:

ISM-SHARIFI: _____

ISM-SHARIFI:

Bosh hisobchi:

ISM-SHARIFI: _____

Bosh yurist maslahatchi:

ISM-SHARIFI: _____

2021 yil " ____ " _____ dagi _____ -sonli
 Oliy ta'lim muassasida to'lov shartnomasi asosida ta'lim olish uchun ta'lim kreditlarini berish
 to'g'risidagi Kredit shartnomasiga 1-sonli ilova

TA'LIM KREDITI BO'YICHA ASOSIY QARZNI TO'LASH JADVALI:

№	To'lov sanasi	Kredit qarzorligi bo'yicha to'lov miqdori
1.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
2.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
3.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
4.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
5.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
6.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
7.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
8.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
9.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
10.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
11.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
12.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
13.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
14.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
15.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
16.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
17.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
18.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
19.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
20.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
21.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm

Bank _____

Qarz oluvchi _____

22.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
23.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
24.		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm
Umumiy qiymati		_____ (_____ so'z bilan _____) so'm

“Bank”

Boshqaruvchi

Bosh hisobchi

M.J.

“Qarz oluvchi”

Bank _____

Qarz oluvchi _____